



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30601/2414-1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 07.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Tuxtaboyeva Feruza Muratovna.,
Ismoilov Ibroximjon Xakimjon o'g'li.,
Tojiddinova Ominaxon Sherzodbek qizi.
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan
tojiddinovaomina74@gmail.com

EFEDRIN ALKALOIDINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA OID

Abstract: This article provides information about the ephedrine alkaloid and its structure, composition, positive and negative effects. Ephedrine is mainly found in common Ephedra distachya and Ephedra equisetina Bge in greater quantities than in other plants. Ephedrine is used in medicine and herbal medicine, but is rarely used today.

Keywords: Ephedra, ephedrine, anise, morphine, scopolamine.

Annotatsiya: Ushbu maqolada efedrin alkaloidi haqida va uning tuzulishi, tarkibi, ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Efedrin asosan oddiy qizilcha va tog' qizilchasi tarkibida boshqa o'simliklarga nisbatan ko'p bo'ladi. Efedrin tibbiyot va tabobatda qo'llaniladi, lekin hozirgi kunda kam foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Efedra, efedrin, qizilcha, morfin, skopolamin.

Аннотация: В данной статье представлена информация об алкалоиде эфедрин, его структуре, составе, положительных и отрицательных эффектах. Эфедрин в основном содержится в душице

обыкновенной и горной орегано по сравнению с другими растениями. Эфедрин применяется в медицине и медицине, но сегодня применяется редко.

Ключевые слова: Эфедра, эфедрин, скарлатина, морфин, скополамин.

Language: Uzbek

Citation: Tukhtaboyeva , F., Ismoilov , I., & Tojidinova , A. ON SOME PROPERTIES OF EPHEDRINE ALKALOID. Universal International Scientific Journal, 1(9), 49–51. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1209>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14359211>

Alklaoidlar asosan geterosiklik tuzulishga ega bo'lgan, tarkibida uglerod, vodorod va azotga qo'shimcha ravishda, molekulalarida oltingugurt atomlari va kamroq xlor, brom yoki fosfor bo'lishi mumkin. Ko'pgina alkaloidlar aniq fiziologik faollikka ega. Alkaloidlarga masalan, morfin, kofein, kokain, xinin, nikotin, efedrin kabi moddalar kiradi. Ko'pgina alkaloidlar kichik dozalarda terapevtik ta'sirga ega, lekin katta dozalarda zaharli hisoblanadi. Alkaloidlar fiziologik ta'siri bilan farqlanadi ularning ba'zilar asab tizimini susaytiradi yoki qo'zg'atadi, boshqalari nerv uchlarini falajlaydi, qon tomirlarni kengaytiradi yoki toraytiradi, boshqalari og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega. Alkaloidlar tirik organizmlar tomonidan sintezlanadi. Ular eng yuksak o'simliklarda tarqalgan bo'lib, o'simliklar tanasida 10 % dan 25 % gacha alkaloid borligi taxmin qilingan. Yuksak o'simliklar qatoriga kiruvchi efedra (qizilcha) o'simligidan efedrin alkaloidi topilgan [1, 2, 3, 4].

Efedrin alkaloidi.

Efidrin tarkibida atsiklik (ochiq zanjirli) va azot yon zanjirida joylashgan alkaloid. Efidrin alkaloidi O'zbekistonda uchrovchi qizilchadoshlar (Ephedraceae) oilasiga kiruvchi qizilcha (efedra) turkumining 2 ta turidan olinadi: Tog' qizilchasi (Ephedra equisetina Bge) va Oddiy qizilcha (Ephedra distachya). Tog' qizilchasi tarkibida alkaloidlarning 90% efedrin tashkil qiladi. Efedrin xlorid kislata bilan reaksiyaga kirishib tuz hosil qiladi. Tuz efedrin gidroxlorid suvda va spirtida yaxshi eriydigan, rangsiz, hidsiz, achchiq mazali kristall moddadir. Efedrin gidroxlorid kukun (poroshok), tabletka va ampuladagi eritma holida chiqariladi. Efedrin gidroxlorid turli komplekslar tarkibiga kiradi. Oddiy qizilcha yer ustki qismini tarkibida 0.25-1.7 foiz alkaloid bo'lib, alkaloidlarning 65 % ni efedrin tashkil etadi. Bu o'simlikdan efidrin alkaloidi olinmaydi. Efedrin kishi organizmiga adrenalina o'xshash ta'sir qiladi ya'ni simpatik nervlarni qo'zg'atadi, qorin bo'shlig'i va

teridagi qon tomirlarini nihoyatda toraytiradi.

Efedrin og'ir operatsiya yoki travmadan so'ng ko'p qon yo'qolishi natijasida yuz bergan kollaps holatida, qon bosimi pasayganda (gipotoniya), miasteniya, allergik bronxial astma, pichan istmasida (pichan astmasi), eshakem toshganda, vazomotor tumov va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. Bundan tashqari efedrin alkaloidi morfin, skopolamin va gangliotiklar bilan zaharlanganda ham ishlatiladi.

Efedrin 1887-yilda Xitoy Ephedra turidan ajratilgan. Qadim zamonlardan beri tibbiyotda ishlatilgan. Efedrin organizm tarkibiga tarkibidagi kimyoviy birikmalar shu jumladan efedrin malekulasi ta'siri katta deb qaraladi. Shunday qilib, 3000 yil oldin Efedrindan yo'tal va yuqori harorat asosiy dorivor birlik sifatida qo'llanila boshlagan [1, 2, 3, 4].

Efedrin alkaloidi haqida ko'plab ilmiy ishlar qilinib, efedrin quyidagi ta'sirlarni

ko'rsatishi aniqlangan: Metabolizmni tezlashtiradi va tez yog' yo'qotish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli tez vazn yo'qotish, tanada yog' miqdorini kamaytirish qobiliyati uchun o'rganilgan. Dastlab 1980-2000-yillarda vazn tez yo'qotish xususiyati bilan mashhurlikka erishdi keyinchalik esa xavsizlik sababli, bir qator mamlakatlarda shu jumladan, AQSHda efedrin alkaloidlari taqiqlangan.

Xulosa qilib aytganda Efedrin tanadagi bir qancha jarayonlarga bir vaqtning o'zida ijobiy ta'sir qilishi mumkin lekin bir qator mamlakatlar bu modda bor mahsulotlarni taqiqlashadi. Efedrin alkaloidi taqiqlanishi sababi u kofein singari sinergik ta'sir ko'rsatadi. Organizm tarkibidagi ortiqcha yog'ni yo'qotishda efedrin kofein bilan birlashtiriladi. Efedrin va kofein kombinatsiyasi tanaga ko'proq ta'sir ko'rsatib faolligini oshirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Beknazarov O'simliklar fiziologiyasi -2009.
2. Вторичные метаболиты растений: физиологические и биохимические аспекты. Часть 2 Алкалоиды -КАЗАНЬ -2009
3. S.X.Sulliyeva, F.A.Tojiyeva, U.B.Ravshanva "O'simliklar fiziologik faol moddalari" fanidan amaliy mashg'ulotlar — Termiz- 2023.
4. Ж.Х. Хожаев "Ўсимликлар физиологияси" – 2004.